O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

KATTAQO’RG’ON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№_____
2025 yil “22” dekabr

“TASDIQLAYMAN”
Kattaqo’rg’on davlat pedagogika
instituti rektori
Sh.R.Urakov
2025 yil “22” dekabr

60110200 - Maktabgacha ta’lim bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bitiruvchilarning umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi uchun

DASTUR VA BAHOLASH MEZONLARI

Kattaqo’rg’on – 2025

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2009-yil 22-maydagi 160-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi “Oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 7-avgustdagi 344-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 60110200 - Maktabgacha ta’lim bakalavr ta‘lim yo‘nalishining malaka talabi va o‘quv rejasi asosida ishlab chiqildi.

TUZUVCHILAR:

1. T.E.Eshquvvatov. Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim kaferasi mudiri, Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD).

2. Z.Qarshiyeva. Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim kaferasi v/b dotsenti, Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD).

3. I.Kamolova. Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim kaferasi assistenti

TAQRIZCHILAR:

1. Narzikulova Dilnoza Xoshimjonovna – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor. Navoiy davlat pedagogika instituti, Xalqaro aloqalar bo’yicha prorektori

2. Sollayeva Gulbahor Xayrullayevna – Kattaqo‘rg‘on shahar 19-DMTT direktori

Mazkur dastur “Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim” kafedrasi Kengashining 2025 yil 30-oktabrdagi 2-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **T. Eshquvvatov**

Mazkur dastur “Pedagogika” fakulteti Kengashining 2025 yil 5-noyabrdagi 2-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Kengash raisi: **A. Saidov**

KIRISH

60110200 - Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta‘limning o‘quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi, uning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini to‘liq o‘zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan shaxsga “bakalavr” malakasi (darajasi) hamda oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

60110200 - Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi uchun dastur ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi 8 ta fan asosida shakllantirilgan. Bu fanlar o‘z negizida qamrab olingan mazmun quyida batafsil bayon etiladi.

UMUMIY PEDAGOGIKA
fani bo‘yicha:

Pedagogika fanining nazariy-metodologik asoslari pedagogik faoliyat mazmuni, ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo’llari, ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan yaqindan tanishtirish orqali ularda pedagogik tafakkurni, ijobiy fikrlash qobiliyatini, ta’lim oluvchilar bilan muvaffaqiyatli ishlashga doir zarur malakalarni, vaziyatni to’g’ri baholash, oqilona qarorlarni qabul qilish, ijtimoiy yordamga muhtoj o‘quvchilarga bilim berish, ularni maqsadga muvofiq tarbiyalash ko’nikmalarini shakllantirish, milliy pedagogik meros g’oyalarini, Sharq va g’arb mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari ta’lim muassasalari amaliyotiga maqsadli tatbiq etish tajribasini hosil qilish.

Pedagogika, didaktika, tarbiya nazariyasi, tarbiya turlari, ta’lim menejmenti, uzluksiz ta’lim, uzluksiz ta’lim turlari, ta’lim ishtirokchilari, maxsus pedagogika, pedagogika tarixi, milliy pedagogik meros, jahon ta’lim tizimi haqida.Ta’lim to’g’risidagi qonun, maktabgacha, umumiy o’rta ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keying ta’lim. O‘zbekiston Respublikasining “Ta`lim to‘g‘risida”gi qonuni asosida uzluksiz ta’lim prinsiplari.Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari .Oliy ta’lim muassasalari turlari . Ta’limning uzviyligi va uzluksizligi .Pedagogika fani, maqsad va vazifalari . Sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik, tarix, falsafa . Barkamol avlod, milliy ong, ta’limning uzviyligi, tarbiyaning, ijtimoiy muhit, irsiyat . Pedagogik fikrlar va g’oyalar rivojining tarixi. Pedagogika tarixini yaxlit rivojlanish jarayoni Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari Ilmiy tadqiqot metodlariga qo’yiladigan talablar.Ilmiy –pedagogik tadqiqotlar.Ilmiy tadqiqot metodlaring tavsif Ta’lim texnologiyalari,innovatsion pedagogika mazmuni ta’limda muammoli va axborot texnologiyalardan foydalanish, kreativlik va uning tashxislanishi.

UMUMIY PSIXOLOGIYA
fani bo‘yicha:

Shaxsni evolyustion jihatdan rivojlanishi. Kognitiv jarayonlarni shakllanishi.

Insonda aks ettirish darajalari. Psixik jarayonlarni shakllanishida tilning ahamiyati. Inson psixikasini ontogenezda rivojlanishi. Psixik jarayonlar va miyaning o‘zaro aloqadorligi. Harakat inson faoliyatning birligi sifatida. Xatti-harakat qurilmalari.

Shaxs psixologiyasining metodologik prinsiplari. Psixologiyada shaxsni o‘rganishlar nazariyasi. Shaxs taraqqiyotini davrlarga bo‘lish. Shaxs rivojlanishining individuallik xususiyatlari va ularning roli. Sotsiogenezda shaxs. Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi va Men – konsepsiyasi. Shaxsning sotsial tasavvurlari. Shaxs taraqqiyotining psixotik, chegaralangan va nevrotik darajalari.

Motivasiya haqida umumiy tushuncha. Motivasiyaning rivojlanish bosqichlari. Motivasiyaning tuzilishiga tizimli yondashuv. Motivasiyaning ontogenezda shakllanishi. Motivasiyaning psixologik nazariyalari. Emotsiya haqida umumiy tushuncha. Emotsiya psixologiyasining nazariy yondashuvlari. Emotsional holatlari. Shaxsning irodaviy sohasi. Iroda muammosini talqini.

Sezgilar klassifikasiyasi. Sezgilarning o‘zgaruvchan shakllari. Teri tuyush sezgisi va idroki. Ko‘rish sezgisi va idroki. Eshitish sezgisi va idroki. Ta’m bilish idroki. Hid bilish. Perseptiv obrazni tashkillashtirish. Fazoni idrok qilish. Fazoni eshitish orqali idrok qilish. Musiqani va nutqni idrok qilish. Rangni idrok qilish. Vaqtni idrok qilish. Xatti-harakatni idrok qilish.

Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning psixofiziologik indikatorlari va mexanizmlari. Miya, ong va diqqat. Diqqatning asosiy xususiyatlar. Diqqat turlari va funksiyalari. Diqqatning rivojlanishi va buzilishi. Diqqat va faoliyat. Diqqatni o‘rganishning amaliy jihatlari. Diqqatni o‘rganishning amaliy jihatlari.

Xotira haqida umumiy tasavvurlar. Xotiraning neyrofiziologik asoslari va bioximik nazariyalari. Xotira murakkab psixik jarayon sifatida. Xotira turlari klassifikasiyasi. Xotira psixologiyasining asosiy qonuniyatlari. Xotira va faoliyat. Inson xotirasining tashkil etuvchi asosiy tamoyillar. Xotiraning rivojlanishi. Xotiraning buzilishi. Xotiraning amaliy o‘rganish jabhalari.

Tafakkur to‘g‘risida umumiy tasavvurlar. Tafakkur turlari va masala tiplari. Tafakkur psixologiyasi predmetining rivojlanishi: asosiy nazariy yondashuvlar. Tafakkurni o‘rganishda klassik yondashuvlar. Tafakkurni bilish faoliyati sifatida o‘rganish. Inson aqliy faoliyatining differensial-psixologik sifatlari. Tafakkur va informatika. Tafakkur tahliliga kognitiv yondashuv. Tafakkur filo va sotsiogenezi. Tafakkur ontogenezi. Nutqiy tafakkur rivojlanish muammolari. Til, ong va tafakkur. Nutq va nutqiy faoliyat.

Psixologiya tarixi predmet va vazifalari. Antik davr psixologiyasi. Jon haqidagi psixologik bilimlarning vujudga kelishi. Sharq mutafakkirlarining psixologik g‘oyalari. Ong haqidagi psixologik tasavvurlar. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanish bosqichi.

MAKTABGACHA TA’LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISH fani bo‘yicha:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiyadan ko‘zlangan maqsad – ta’limning keyingi bosqichida ijodiy va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab berishdan iborat.Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish fanining maqsadi maktabgacha ta’lim-tarbiya qonuniyatlari bilan yaqindan tanishtirish, shuningdek, maktabgacha ta’limga qo‘yilgan talablar, tamoyillar, mazmuni, tarbiya turlari va tarbiyachi shaxsini shakllantirishning pedagogik asoslarini o‘rgatishdan iborat. Bo‘lajak tarbiyachilarni ta’lim-tarbiya qonuniyatlari bilan yaqindan tanishtirishga doir bilimlar bilan qurollantirish, shuningdek, maktabgacha ta’limga qo‘yilgan talablar, tamoyillar, mazmuni, tarbiya turlari va tarbiyachi shaxsini shakllantirishning pedagogik asoslari kabi masalalarni o`z ichiga oladi.

Pedagogik qonuniyatlar hamda tamoyillarga asoslangan holda o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish haqidagi bilimlarga ega bo‘lish, ta’limni tashkil etishning asosiy shakllarini amaliyotda qo‘llash, maktabgacha ta’lim-tarbiyaning mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, ta’limiy-tarbiyaviy jihatlarini topish, hamda kasbiga bo‘lgan munosabatni tarbiyalashdan iborat.Bola tug‘ilgan kundan boshlab, maktabga borguniga qadar bo‘lgan davrda har tomonlama yetuk barkamol etib tarbiyalash qonuniyatlarini o‘rganish maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish fanining asosiy mavzusidir.

O‘rta Osiyoda XIX asrning 80-90- yillariga kelib, bolalar maktabgacha ijtimoiy tarbiyasi g‘oyalari tatbiq etila boshlandi. O‘sha davrda taraqqiyparvarlik kayfiyatidagi mahalliy ziyolilar mehnatkash ayollarning og‘ir ahvolini va bolalar nazoratsizligini ko‘rib, ularning qismatini yengillashtirishga intila boshladilar.Respublikada ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish ishlari jadal sur’atlar bilan olib borilmoqda. Bu borada qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlar mohiyatini chuqur anglab yetish bilan bog‘liq faoliyat turlari muvofiqlashtirilishi va boshqalar..

Tarbiya va ta’limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi, jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay aralashmaganligi hisobga olinadi. Keyingi yosh guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi, moslashishi ancha oshib boradi. Shunga muvofiq tarzda ta’lim-tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari o‘zgarishi va boshqalar..

Ilk qadam, Davlat talablari, davlat maktabgacha ta’lim muassasalari, kompetensiya, “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” sohasi kompetensiyalari, “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi kompetensiyalari, “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasi kompetensiyalari, “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi kompetensiyalari, “Ijodiy rivojlanish” sohasi

kompetensiyalari

Estetik tarbiya, estetik g'oya manbalari, estetik his, mehnat tarbiyasi, kattalar mehnati bilan tanishtirish, navbatchilik, o'z-o'ziga mehnat, tabiatdagi mehnat, xo 'jalik –maishiy mehnat, qo'l mehnat. Ekologik tarbiya, estetik g'oya manbalari, estetik his, mehnat tarbiyasi, kattalar mehnati bilan tanishtirish, navbatchilik, o'z-o'ziga mehnat tabiatdagi mehnat, xo'jalik-maishiy mehnat, qo'l mehnati.Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri ekologik vaziyat hisoblanadi.

O'yin bolalar faoliyatining asosiy turi. O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasi sifatida. Pedagogik jarayonda o'yining tutgan o'rni.O'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni "bolalikning hamrohi" deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Intellektual, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, bolaga yo'naltirilgan ta'limiy yondashuv, pedagogning ilmiy-pedagogik-psixologik strategiyasi, rivojlantiruvchi yondashuv, ta'limning rivojlantiruvchi muhiti, o'yin faoliyati, inklyuziv ta'lim, pedagogik diagnostika ta'limi, ota-onalar bilan hamkorlikning istiqbolli shakllari

Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalari, maktabgacha ta'lim muassasasi bilan maktab aloqasining shakllari. Zaruriy faoliyatning barcha turlarini yanada takomillashtirish va shu asosda qimmatli ma'naviy sifatlar – mustaqillik, uyushganlik, jamoatchilikni shakllantirish, maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalashning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

TABIAT BILAN TANISHTIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI

fani bo'yicha:

Tabiat bilan tanishtirish fanining maqsad va vazifalari, uning rivojlanish tarixi, pedagog va psixologlarning tabiatni inson hayotidagi ahamiyatini, bola shaxsining rivojlanishida tabiatning o'rni va vazifalari haqidagi qarashlarni, pedagogik kollejlarida tabiat bilan tanishtirish fanining o'qitilishi, mashg'ulot turlari va mazmunini Fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovasiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish dasturi, turli guruhlarda tabiat burchagini tashkil qilish va hayvon yoki qushlarni, o'simliklarni parvarishlash; tabiat bilan tanishtirishning ish shakllari bilan keng foydalanish. Tabiat bilan tanishtirish ishiga metodik rahbarlik qilish, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini rejalashtirish va ularni o'tkazish. Tabiat bilan tanishtirish ishlarini rejalashtirish; sayr va ekskursiyalarni o'tkazish malaka va ko'nikmalariFanning tushuncha kategoriyalari tizimi va metodologiyasini bilish, bilimlarning asosiy

yo'nalishlarini siyosiy tahlil qilish. Jamiyatning turli sohalarida bo'lib o'tayotgan jarayonlar va o'zgarishlarni tahlil qila olish va ulardan xulosalar chiqarish. Tabiat bilan tanishtirishda aqliy, ahloqiy, jismoniy, estetik ekologik tarbiya turlarini rivojlantirish. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida texnik vositalardan foydalanish.

Ko'nikmalar jihatidan: Tabiat bilan tanishtirishda texnik vositalardan foydalanishning afzallik tomonlari. Oddiy tajribalar, ularning mazmuni, bolalarda izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Tabiat qo'ynida turli xildagi o'yinlarni tashkil qilish texnologiyalari,markazlardagi faoliyatlar " Ilm fan markazi"da kichik tajribalar o'tkazish malakalarini shakllantirish MTTda tarbiaychiga qo'yilgan talablar. Tarbiyachi ega bo'lishi kerak bo'lgan xislatlar va boshqaruvchanlik qobiliyatining ahamiyati.

Tabiat bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyat.

BOLALAR JISMONIY TARBIYASI

fani bo'yicha:

Bolalar jismoniy tarbiyasining yosh, fizalogik va ruhiy xolatini o'rganish maktabgacha talim yoshidagi bolalarga jismoniy tarbiya berish metodikasi fanining ilmiy- pedagogik asoslari maktabgacha yoshdagi bolalar asosiy xarakterlarini o'rganish maktabgacha yoshdagi bolalar bilan xarakatli o'yinlar o'tkazish, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kundalik faoliyat davomida jismoniy tarbiya bo'yicha ishlarni tashkil etish haqida bilim berish. Ishlab chiqilgan mashq vositalari yordamida ularning harakat fa'olligiga bo'lgan ehtiyojlari va sevimli mashqlari bilan shug'ullanish, sport haqidagi ijobiy tasavvurlarga o'rgatishdir. " Bolalar jismoniy tarbiyasi " fanining asosiy maqsadi – talabalarga jismoniy tarbiya va Bolalar jismoniy tarbiyasi fa'oliyatini amalga oshirishning uslublarini va muvofiqlashtirish yo'llarini o'rgatishdan iborat.

" Bolalar jismoniy tarbiyasi " fanining vazifasi talabalarga quyidagilarni o'rgatishdan iborat: Bolalar jismoniy tarbiyasini fa'oliyati, uning funktsiyalari va Bolalar jismoniy tarbiyasi , sport sohasi Bolalar jismoniy tarbiyasini tashkil etish, sport turlari bo'yicha musobaqalarni tashkil etish, sportni boshqarishning huquqiy asoslari kabi mavzular bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Talabalarga maktabgacha yoshdagi bolalarga asosiy xarakatlarni o'rgatishni, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan xarakatli o'yinlar o'tkazish metodikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kundalik fa'oliyat davomida jismoniy tarbiya bo'yicha ishlarni tashkil etish vazifalari bajariladi.

Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, ilmiy-nazariy asoslari, pedagogika nazariyasi tushunchasi, uning kategoriya va tamoyillarini tahlil qilish. O'quv jarayonini tashkil etishning metod va shakllariga qo'yilgan zamonaviy talablarni tahlil qila olish va ulardan xulosalar chiqarish. Ta'lim oluvchilar shaxsi omillari, uning shakllanish taraqqiyoti; yagona o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari haqidagi to`liq bilimlarga ega bo`lish.

Bolalar jismoniy tarbiyasi fanining pridmeti va asosiy tushunchalari. Bolalar

jismoniy tarbiyasi fanining tatqiqod metodlari. Bolalar jismoniy tarbiyasi fanining rivojlanish tizimi. Jismoniy tarbiya tizimida talim-tarbiya berish tamoyillari va talim metodlari va usullari. Jismoniy tarbiya vazifalari va vositalari. Jismoniy mashqlarning xarakteristikasi. Jsmoniy mashqlarning paydo bo'lishi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Ilk va maktabgacha bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari va ilk qadam davlat dasturida jismoniy tarbiya masalarining yoritilishi.

BOLALARNI SAHNALASHTITISH VA IJODIY FAOLIYATGA O'RGATISH fani bo'yicha:

Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish, sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining o'ziga xosligi, sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishi metodlari. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish mazmuni va qo'g'irchoq yasash usullari hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatishning maqsad v avazifalari, bolalarg ao'rgatiladigan ijodiyi shning mazmuni, innovatsion texnologiya usullaridan foydalanish, ijodiy natijalarini namoyish etish va baholash, bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatuvchiish turlari, qo'l ijodiyoti, o'quv ijodiyoti kabi masalalarni o`z ichiga oladi.

Talabalar sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish, sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining o'ziga xosligi, sahnalashtirish faoliyatini zamonaviy texnologiya va metodlarni; musiqiy ta'lim va tarbiyani rivojlanishida zamonaviy, ilmiy, metodik ishlanmalarni tayyorlashni; taraqqiy etgan mamlakatlar ta'lim tizimini; shaxs madaniyati to`g'risida tasavvurga ega bo`lish; musiqiy ta'lim bo`yicha o`quv tarbiyaviy ishlarni ryejalashtirishni; zamonaviy musiqiy pedagogik printsiplar bo`yicha musiqa madaniyati darslarini rejalashtirishni va olib borishni; amaliyotda musiqa pyedagogik tyexnologiya metodlarini qo`llash usullarini ko'nikmalarga ega bo'lishi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining vazifalari. Teatr - sahnalashtirish faoliyatining shakllari. Teatr - sahnalashtirish faoliyati tamoyillari. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining ahamiyati. Turli yosh guruhlarda sahnalashtirish faoliyatining vazifalari. Sahnalashtirish faoliyati rivojlantirish vositasi sifatida. Sahnalashtirish faoliyatida bolalarda aktyorlik qobiliyatini rivojlantirish. Sahnalashtirish faoliyati vositasida bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish usullari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilishda tarbiyachining o'rni. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish. Qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lish tarixi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati.

Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash turlari. Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash uchun zaruriy materiallar. Yumshoq o'yinchoqlarning bola tarbiyasida ahamiyati.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarni ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti . 2017 yil

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda parpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil

5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

6. SH.M. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'grisidagi 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son qarori

7. David F. Lohman, Joni M. Lakin. Reasoning and Intelligence. New York: Cambridge University Press. – 2009.

8. Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005.-550p.

9. Edited by Michael Lewis, Jeannette m. Haviland-Jones, and lisa feldman barrett. Handbook of emotions/ The Guilford press. New york london. -2008.

10. Elizabeth A. Styles. The psychology of attention. This edition published in The Taylor & Francis e-Library, 2005.-232 p.

11. G'oziyev E.G'. Psixolŏgiya. – T.: O'zMU «Universitet», 2003.

12. G'oziyev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. – Toshkent: Universitet ,1990.

13. G'oziyev E.G'. Xotira psixologiyasi. – T.: ToshDu, 1994.

14. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T.: O'qituvchi, 2010.

15. Gerald Matthews. - Cambridge University Press. - 2009.-906 p.

16. Muxamedova D.G., Mullabayeva N.M., Rasulov A.I. «Umumiy psixologiya». – T.: Mumtoz so'z,

17. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish to'g'risidagi Konsepsiya 2019 13-fevral.

18. SH.M. Mirziyoyev. Maktabgacha ta'limni tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risidagi farmoni. T; sh. 09.05.2019. y.

19. B.T. Haydarov, G.X. Ibroimova. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi.(Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida) Darslik 2020y SamDu nashri

20. Usmonxo'jayev T.S. va boshq. 500 xil harakatli o'yinlar2014y Toshkent

20. B.T. Haydarov. Eshtayev. G.X. Ibroimova «Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari.

22. R.A.Mavlanova,N.H.Rahmonqulova,K.O.Matnazarova ,M.K.Shirinov ,S.Hafizov Umumiy pedagogika "Fan va texnologiya"2018 ,528 bet
23. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. "Sanostandart" nashriyoti. Toshkent 2017 y.
24. R.A.Mavlonova, N.Raxmonqulova ,N.Voxidova,K.Matnazarova Pedagogika (Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti)darslik Toshkent-2013
25. A.Musurmanova, X.Ibragimov, OJamoldinova, K.Risqulova, S.Yo'ldosheva, A.Jumayev, F.Babashev, P.Isamova, S.Sharipova, G'.Salohiddinova, K.Todjibayeva "Umumiy pedagogika" I qism Yoshlar nashriyot uyi toshkent - 2020
26. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'olatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zomova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur nashriyoti",Toshkent-2019
27. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. – T.: O'qituvchi, 1993.
28. F.R.Qodirova,R.M.Qodirova. Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. T., Fan va texnologiya, 2011
29. N.Qayumova. Maktabgacha pedagogika. T., 2013.."Ilk qadam" MTT davlat o'quv dasturi. – Toshkent: 2018.

Internet resurslari

1. http://textshare.tsx.org
2. http://www.mgimo.ru/fileserver/
3. http://www.ssu.runnet.ru/...
4. http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch_14.htm
5. http://www.voppsy.ru
6. http://psychol.ras.ru
7. http://psyberia.ru

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining ta'lim yo'nalishi mutaxassislik fanlaridan fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovini

BAHOLASH MEZONLARI

Sinov topshirish shakli	Yozma
Sinov uchun ajratilgan vaqt	Yozma ishga - 150 daqiqa
Savollar soni	5
Har savolga ajratilgan maksimal ball	Har bir savolga 20 baldan
Maksimal ball	100
O'tish bali	60
Sinov topshirish shakli	Test
Sinov uchun ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	50
Har savolga ajratilgan maksimal ball	2
Maksimal ball	100
O'tish bali	60
Sinov topshirish shakli	Og'zaki
Sinov uchun ajratilgan vaqt	30 daqiqa
Savollar soni	5
Har savolga ajratilgan maksimal ball	10
Maksimal ball	100
O'tish bali	60